



# “O‘ZMETKOMBINAT” AJ BARCHA YURTDOSHLARIMIZNI KIRIB KELAYOTGAN 2025-YIL BILAN TABRIKLAYDI!

Po‘lat o‘tda toblanadi, odam mehnatda

# Metallurg Minbari



O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko‘p nusxali gazetasi

2024-yil 26-dekabr № 12 (1546)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



## BUGUNGI SONDA

### TABIATNI ASRASH

Ustuvor yo‘nalish 2

### JARAYON

Xalqaro andozalarga muvofiq 3

### SOLNOMA

E‘tiborli voqealar 4

### MOHIYAT

Manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurash 5

### NIGOH

Taraqqiyotga xizmat qiladi 6

### BUGUNNING GAPI

Yangi yil bayramini tinch va osoyishta o‘tkazing! 8

### SO‘RAGAN EDINGIZ

Ayollarga yuklarni ko‘tarish taqiqlanadimi? 10

### TAFFAKKUR

Hech narsa o‘zi uchun yashamaydi 12

## YANGI YIL TABRIGI

### Aziz metallurklar, hamkasblar, ishlab chiqarish faxriylari, hurmatli hamkorlar!

“O‘zmetkombinat” AJ rahbariyati nomidan va shaxsan o‘z nomimdan sizlarni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan tabriklayman!

O‘tayotgan yilni sarhisob qilar ekanmiz, har biringizga fidokorona mehnatingiz, kasbingizga sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorchiligimni bildiraman. Sizing samarali mehnatingiz va kasbiy mahoratingiz tufayli “O‘zmetkombinat” AJ metallurgiya sanoatining yetakchisi sifatida dadil oldinga qadam tashlab, mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

O‘tayotgan yil biz uchun o‘sish va o‘zgartirishlar yili bo‘ldi. Biz ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, resurslarni tejaydigan, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan strategik vazifalarni amalga oshirishda ishonchli qadamlar tashladik. Birgalikdagi sa‘y-harakatlar tufayli biz mehnat samaradorligini oshira oldik va kombinatning ichki va xalqaro bozorlardagi o‘rnini mustahkamladik.

Biz “Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi”dek muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqdamiz. Mazkur keng ko‘lamli loyiha kombinatning ishlab chiqarish quvvatini ikki barobarga oshirish bilan birga, mamlakatimiz metallurgiyasining jahon andozalariga mos rivojlanishining yangi bosqichiga aylanadi. Uning muvaffaqiyatli yakunlanishi jahon bozoridagi o‘rnimizni yanada mustahkamlash va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, hududning barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkonini beradi.

Biz zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalarni faol

joriy etmoqdamiz, ishlab chiqarishni yanada barqaror qiladigan, ekologik toza, samarali investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqdamiz. Bu tashabbuslar atrof-muhitni asrash, kelajak avlodlar uchun hayot sifatini yaxshilashga qo‘shilayotgan muhim hissadir.

Ishlab chiqarish faxriylarimizga samimiy minnatdorchiligimni bildiraman. Hurmatli faxriylar, sizlarning tajriba, bilimlaringiz va an‘analaringiz barcha yutuqlarimiz poydevoridir. Ko‘p yillik mehnatingiz yosh mutaxassislariga ibrat va ilhom manbai bo‘lmoqda.

Ishonchli hamkorlarimizga ham rahmat aytmoqchiman. Sizing hamkorligingiz, qo‘llab-quvvatlashingiz va ishonchingiz muvaffaqiyatimizning muhim omillaridan biridir. Biz hamkorlikda qiyinchiliklarni yengib, yuqori natijalarga erishamiz.

### Hurmatli metallurklar, hamkasblar!

O‘tayotgan yil shuni ko‘rsatdiki, biz qiyin sinovlarga qaramay hamjihat va ahil jamoa bo‘lib qolamiz. Yangi yil biz uchun yangi ufqlar va imkoniyatlarni ochadi. Ishonchim komilki, biz har qanday qiyinchiliklarni birgalikda yengamiz va O‘zbekiston metallurgiya kombinatining shonli tarixini yozishda davom etamiz.

Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman. 2025-yil ko‘tarinki kayfiyat, yangi g‘alabalar olib kelsin!

**Dilshod AXMEDOV,**  
“O‘zmetkombinat” AJ  
Boshqaruvi raisi – Bosh direktor.

# 2025-YIL “ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI”

## TABIATNI ASRASH DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Ekologik muammolar insoniyat uchun tobora eng katta xatarga aylanib bormoqda. Atmosferaning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho‘llanish, qum va tuz bo‘ronlari, iqlim o‘zgarishi, o‘simlik va hayvonot olami turlarining kamayib borayotgani, ichimlik suv tanqisligi, ozon qatlaminin yemirilishi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi o‘nlab muammolar kundan kunga insoniyat uchun eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Dunyoda tabiatni asrash uchun jiddiy kurash olib borilyapti.

### MABLAG‘LAR IKKI BARAVARGA KO‘PAYTIRILDI

Mamlakatimizda tabiatni asrash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Yaqinda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari 2025-yilgi Davlat budjetini ko‘rib chiqishdi. Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmisel shamollari va chang-qum bo‘ronlarining atrof-muhitga zararli ta‘sirilarining oldini olish maqsadida “Yashil makon” umummilliy loyihasi uchun ajratilishi rejalashtirilgan mablag‘lar 2 baravarga ko‘paytirildi.

### YASHILLIK DUNYONI QUTQARADI

“Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimiz ertangi kuni, xalqimizning sog‘lom kelajagi uchun, eng muhimi, hayotimizga xavf solib turgan global ekologik buhronlarga qarshi turishda samarali qalqon bo‘la oladigan hayotbaxsh harakat sifatida xalqaro darajada e‘tirof etilmoqda. Bu ulkan loyiha shunchaki daraxt ekish aksiyasi emas. U mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan, kelgusi necha yuz yilliklarga daxldor bo‘ladigan ulkan strategik vazifadir. Global isishdan, atmosfera havosi ifloslanishidan saqlovchi boshqa manba yo‘q bizda.

### “O‘ZMETKOMBINAT” 80 YILLIGI” BOG‘I

Uch yil avval boshlangan bu xayrli ish allaqachon yurtimiz bo‘ylab chinakam xalq harakatiga aylandi. “O‘zmetkombinat” Ajda ham “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida keng hajmli ishlar olib borilmoqda. Kombinatning hududlarida ekologik holatni yaxshilash, Bekobodning kuchli shamoli ta‘siridan himoyalashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Kombinat atrofida “yashil belbog‘lar – himoya daraxtzorlarini barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Bu yil bahorda Xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish bo‘linmasining tashqari hududi atrofida “O‘zmetkombinat” 80 yilligi” bog‘i barpo etilgan edi. Dekabr oyida ham bu bog‘da ko‘chat ekish ishlari davom etdi.

Shuningdek, Navli prokatlash, Energetika bo‘linmalarining tashqi hududlarida hamda sobiq “Bekobodmontaj” boshqarmasi yonida ham shunday bog‘lar tashkil etildi. Bu mavsumda shu to‘rta bog‘ hamda kombinat ichki hududlarida 25 ming tup manzarali daraxt va buta ko‘chatlari ekildi.

Kombinatning Klining xizmati Obodonlashtirish uchastkasi tomonidan bu joylarga chinor va katalpa, hind sireni, terak kabilarning ko‘chatlari ekildi. Ko‘chat ekishda ustalar Abduvahob



Aliqulov va Komil Irnazarov boshchiligidagi ishchilardan Ilhom Madiyorov, Rustam Sulaymonov, Saidahmad Hasanov, Odil Akbarov, Husniddin Toshboyev, Ikrom Boltaboyev kabilari boshqalarga namuna ko‘rsatdilar.

### ENDIGI VAZIFA

Ekilgan ko‘chatlarning parvarishi, ularning sug‘orilish tizimi, o‘z vaqtida suv va ozuqa moddalari bilan ta‘minlanishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ekilgan ko‘chatlarni saqlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Shu sababli ham “Yashil makon” umummilliy harakatining navbatdagi bosqichlarida mutaxassislar tavsiyalariga qat‘iy amal qilish, ko‘chat va ekiladigan joy tanlash, o‘z vaqtida sug‘orish hamda parvarishlash dolzarb ahamiyatga ega.

Bizning mintaqamiz uchun aynan daraxtlar eng asosiy najotkor, tabiiy muvozanatni tiklovchi muhim vosita hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi va uning doirasida ekilayotgan millionlab daraxt ko‘chatlari vaqti kelib bizni va farzandlarimizni ekologik xatarlardan himoyalovchi katta kuchga aylanishi shubhasiz.

Diyor ZULFIQOROV.



## YASHIL HUDUDLAR KENGAYADI

Aslida mamlakatimizning go‘zal tabiati, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvlari asrlar davomida insoniyatni maftun etib keladi. Biroq, sanoatning rivojlanishi, energiya resurslariga talabning ortishi, tabiatga munosabatning o‘zgargani iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, suv taqchilligi kabi muammolarni ko‘ndalang qo‘ydi.

Bu masalalar yechimini topish uchun “Yashil makon” umummilliy loyihasining hayotga joriy etilgani xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo‘lgan bo‘sh yerlarga ko‘chat

ekish, bog‘-rog‘lar barpo etish an‘analarini qayta tikladi. Ona tabiatga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirdi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi boshlanganidan buyon “O‘zmetkombinat” Ajda ham yangi bog‘-rog‘lar barpo etish, atrofni ko‘kalamzorlashtirish muhim vazifalardan biriga aylandi. Keyingi uch yilda kombinatda 300 mingga yaqin daraxt va buta ko‘chatlari ekildi.

Kombinat atrofida “Yashil belbog‘” yaratilmoqda. Bu ishlar eko-

logiyani yaxshilash bilan birga kombinatda “Bekobod shamoli” nomi bilan ataladigan shamol yo‘lini to‘siq, atrof-muhitga ta‘sirini kamaytiradi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”, deb e‘lon qilinishida chuqur ma‘no mujassam. Zero, tevarak-atrofimizda yashil hududlar kengayib, yashil qalqonlar ko‘payishi ona tabiatimizni asrab-



avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hasanboy SHOKIROV.



## 14-YANVAR - VATAN HIMOYACHILARI KUNI

### EZGU VA MUQADDAS VAZIFA

1992-yilning 14-yanvarida O'zbekiston Parlamenti mamlakat hududidagi barcha harbiy qismlar, texnikalar va harbiy ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga o'tkazilishi haqida qaror qabul qildi. Shu tariqa O'zbekiston Qurolli kuchlariga poydevor qo'yildi. 1993-yilning 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroriga ko'ra 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni sifatida belgilab qo'yildi.

Hayotimizda tinchlik-xotirjamlikning qadriga yetish, ularga shukr qilish, uni asrab-avaylash barchamizning burch va vazifamizdir. Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi ona Vatanni himoya qilishi, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishi hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qo'shishi bilan o'lchanadi. Muta-fakkir shoir Alisher Navoiy bobomiz aytganidek, bu dunyoda er yigitning eng buyuk, ezgu va muqaddas vazifasi, avvalo, o'z oilasi, Vatani va xalqini munosib himoya qilishdan iboratdir.

Shu jihatdan olib qaralganda vatan himoyachilari eng olijanob va sharafli kasbidir.

Mard va jasur, el-yurtiga sadoqat-

li yigitlar vatanni qo'riqlashdek g'oyat mas'uliyatli vazifani sharaf bilan ado etib kelishmoqda. Biz O'zbekistonimizning vatanparvar er yigitlari, shonli armiyasi, uning saflarida xizmat qilayotgan jasoratli harbiylari bilan hamisha faxrlanamiz.

Ular borki, xonadonlarimiz, yurtimiz tinch, mamlakatimiz sarhadlari daxlsizdir!

14-yanvar Vatan himoyachilari kuni yaqinlashib kelmoqda. Ushbu bayram bilan yuragida Vatan va xalq sevgisi mahkam joy olgan shijoatli o'g'lonlar, yurt sarhadlarini sergaklik bilan qo'riqlayotgan aka-ukalarimiz qatori yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida turli sohalarida xizmat qilayotgan barcha vatandoshlarimizni qutlaymiz.

Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi joriy yilning 10-13-dekabr kunlari "O'zeksomarkaz" Milliy ko'rgazma kompaniyasining barcha pavilonlarida bo'lib o'tdi. Unda "O'zmetkombinat" AJ ham o'z mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

### KENG IMKONIYATLAR MAYDONI

Har yili o'tkaziladigan mazkur tadbir davlat, biznes va investorlar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash uchun muhim maydonchaga aylandi.

Bu yil yarmarkada 4 627 dan ortiq korxonalar qatnashdi, 6 mingdan ko'proq turdagi mahsulotni namoyish etildi. Ushbu mahsulotlar sanoatning metallurgiya va mashinasozlikdan tortib to'qimachilikgacha, kimyo sanoatidan elektronika mahsulotlarigacha bo'lgan turli sohalarini qamrab oldi.

Yarmarka O'zbekistonning ichki iqtisodiyotni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi pozitsiyalarini mustahkamlashga qaratilgan strategik yo'nalishini yaqqol aks ettiradi.

Yarmarkada qiymati 6,5 trillion so'm bo'lgan 2 700 ga yaqin keli-



shuv imzolandi. Ushbu kelishuvlar yirik tarmoqlararo loyihalardan tortib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan xususiy investitsiya tashabbuslarigacha bo'lgan yo'nalishlarni qamrab oldi.

Yarmarkaning yana bir muhim jihati - bu nafaqat mavjud yutuqlarni, balki O'zbekiston sanoatini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli loyihalarni namoyish etishdir. Xususan, 2025-yilgacha amalga oshirilishi rejalashtirilgan umumiy qiymati 80 trillion so'm bo'lgan 2 158 dan ortiq tashabbuslar taqdim etildi. Bu loyihalar sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan.

## SERTIFIKATLAR BERILDI

Joriy yilning oktabr oyida "O'zmetkombinat" AJ tarkibiy bo'linmalarida Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha tashqi audit o'tkazilgan edi.

Ro'y berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish, ularning kelib chiqishi va rivojlanishining oldini olish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni aniqlash kabilar auditni o'tkazishdan asosiy maqsadlar safiga kiritilgan edi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun sanoat xodimlari va maxsus bo'linmalarining texnik vositalari va harakatlarining tasniflashini rejalashtirish va kadrlar tayyorlash, xodimlarning malakasini baholash, kamchiliklarni bartaraf etish kabilar ham audit o'tkazilishi mobaynida ko'rib chiqildi.

Tashqi audit davomida mutaxassislar kombinatimizning Elektrda po'lat eritish, Navli prokat, Zoldir prokat, Rangli metallar ishlab chiqarish, Issiqlikni o'tkazmas materiallar kabi bo'linmalarida bo'lishdi. Qayta sertifikatlashtirish tashqi auditining yakuniy natijalariga ko'ra Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi kengashi "O'zmetkombinat" AJning Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablariga muvofiq ekanligi to'g'risida Sog'liqni saqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash menejment tizimi Xalqaro standart talablariga muvofiqligini aniqladi. Shunga asosan kombinatga O'z DSt ISO 45001:2020 / ISO 45001:2018 milliy sertifikati hamda Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi xalqaro standart talablariga javob beradigan ISO 45001:2018 xalqaro sertifikati berildi.



## XALQARO ANDOZALARGA MUVOFIQ

"O'zmetkombinat" AJ ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" Xalqaro sertifikatini qo'lga kiritdi. Mazkur sertifikat kombinat faoliyati korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimining xalqaro standartlarga muvofiqligini bildiradi hamda barcha darajadagi boshqaruv apparatiga shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash yuzasidan katta mas'uliyat yuklaydi.

O'tgan davr mobaynida Komplaens xizmati va Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti kombinat faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi bilan birgalikda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan, xalqaro standartlar talabi bo'yicha 17 ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Kombinatning 89 funksiyalari baholashdan o'tkazildi. Uning natijalariga ko'ra korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan vazifa va funksiyalardagi korrupsiya xavfi darajasini minimallashtirish choralari ko'rilmogda.

Kelgusida kombinatning korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlariga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan:

- tizimli ravishda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirib borish, shu jumladan,

xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar ishlab chiqilishini ta'minlash;

- korrupsiyaga oid murojaatlarni adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash, mazkur sohada huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan doimiy monitoring hamda ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazilishini ta'minlash;

- Kombinatda korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovnomalari o'tkazish.

**"O'zmetkombinat" AJning  
Kuzatuv Kengashi huzuridagi  
Komplaens xizmati.**

# 2024-YILNING E'TIBORLI VOQEALARI

\* 5-mart kuni "O'zmetkombinat" AJ o'zining 80 yilligini nishonladi. 1944-yilning shu kuni marten pechida birinchi po'lat eritmasi olingan edi.



\* Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mehnatda erishayotgan yutuqlari, jamoat hayotida faol bo'lgan xotin-qizlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan davlat mukofotlari bilan taqdirlanilar. Ular qatorida Elektrda po'lat eritish bo'linmasi kran mashinisti Shahnoza Patxitdinova "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi.



\* 16- va 17-may kunlari Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJ 80 yilligi munosabati



bilan "Innomet.uz - 2024" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Ushbu konferensiyada ishtirokchilar metallurgiya sohasidagi innovatsiyalar, energiya resurslarini tejoychi texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, iqtisodiyot va moliyaviy yechimlar kabi mavzularda taqdimotlar o'tkazdilar.



\* 30 yil oldin 1994-yil may oyida 1-navli prokat sexida yillik quvvati 100 ming tonna bo'lgan zoldir uchastkasi ishga tushirilgan edi.

\* Yoshlar oyligi doirasida 27-iyun kuni Metallurglar madaniyat saroyida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvi va "Yoshlar innovatsion konferensiyasi" tashkil etildi. Ochiq muloqotda yoshlar o'z muammolarini, fikr-mulohazalarini bildirdilar. Tadbirda yoshlarning maqsadlariga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilishiga har tomonlama ko'mak berish kombinat rahbarlarining eng ustuvor vazifasi bo'lib qolishi alohida ta'kidlab o'tildi.



"Yoshlar innovatsion konferensiyasida" 11 ta loyiha taqdimoti o'tkazildi. Loyiha mualliflariga, bir guruh yosh metallurglarga "Tashakkurnoma" va qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi

\* Mustaqillik bayrami oldidan ibratli faoliyati hamda jamoat ishlari-dagi faol ishtiroki uchun bir guruh yurtdoshlarimiz Prezident farmoni bilan mukofotlandilar. Ular orasida kombinatimizning Elektrda po'lat eritish bo'linmasi operatori Abdu-mo'min Mirzamatov ham "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.



\* Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi ishga tushganligiga 50 yil to'ldi.

1974-yili uning yiliga 20 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan birinchi navbati ishga tushirilgan edi.

\* 12-oktabr kuni "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi raisi, Respublika Bosh vaziri Abdulla Aripov raisligida o'tkazilgan yig'ilishda kombinat Boshqaruvi raisi - Bosh direktor Rashid Pirmatov tantanali ravishda pensiyaga kuzatildi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining o'rinbosari Dilshod Axmedovning kombinat Boshqaruvi raisi - Bosh direktori lavozimiga tayinlangani e'lon qilindi.

\* Bu yil "O'zmetkombinat" AJ ishga tushganligiga 80 yil to'ldi. Bu yubiley kombinatda tantanali va

keng tarzda bayram qilindi. Bayram tadbirlarining asosiy qismi 4-noyabr



kuni o'tkazildi.

Elektrda po'lat eritish bo'linmasida yubiley po'lat eritmasi olindi. "Metallurg" markaziy stadionida kombinatning 80 yilligiga bag'ishlangan katta bayram tadbiri bo'lib o'tdi. O'zbekiston xalq artistlari Yulduz Usmonova, Nasiba Abdulla-



yeva, qo'shiqchilar orasida ko'zga ko'ringan xonandalar Shohruhxon, Bunyodbek Saidov, Jahongir Foziljonov, Zohirshoh Jo'rayev ishtirokida katta bayram konserti tashkil etildi.



\* "O'zmetkombinat" AJning 80 yilligi munosabati bilan ko'p yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan ishchi-xodimlar "Kombinat ravnaqiga hissa qo'shganligi uchun" ko'krak nishoni bilan mukofotlandilar.

## ULAR ENG YAXSHI RATSIONALIZATORLAR

19-dekabr kuni "O'zmetkombinat" AJ Ijroiya apparatining majlislar zalida korxonada xodimlari o'rtasida "Texnikaviy ratsionalizatorlik takliflar" va "Tashkiliy ratsionalizatorlik takliflar" nomli ikki nominatsiyadan iborat tanlov o'tkazildi. Tadbirda 20 dan ortiq nomzod ishtirok etib o'z loyihalarini taqdim etdilar.

Tanlov qiziqarli loyihalar va munozaralarga boy bo'ldi. Unda korxonada xodimlari o'z fikr va g'oyalari bilan o'rtoqlashdilar. Hakamlar hay'ati har bir ishtirokchining chiqishiga katta e'tibor qaratdi. Ishtirokchilar loyihaning g'oyasini boshqalarga aniq va to'liq tushuntirib, savollarga javob berdilar.

Tanlov yakunida hakamlar hay'ati tanlov g'oliblari va sovrindorlarini aniqlashdi.

"Texnikaviy ratsionalizatorlik takliflar" nominatsiyasida Zoldir prokatlash bo'linmasi boshlig'i o'rinbosari T. Nosirov birinchi o'rinni egalladi. Uning "Ø 50mm L=7.5m doira mahsulotini ishlab chiqarishni joriy qilish" loyihasi eng yaxshi deb topildi. "Tokarlik stanoklari uchun "Kulachok kopir", "Chashkorez" va "Derjavka" moslamalarini tayyorlash" bo'yicha loyihani taqdim etgan Ta'mirlash-mexanika bo'linmasi muhandisi R. Rahimov ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Uchinchi o'rin Zoldir prokatlash bo'linmasi usta-mexanigi K. Hakimovga berildi. U "Zanjir halqasi" qismini ekspluatatsiya qilish resursini tiklash bo'yicha yangi usul" loyihasi bilan tanlovda ishtirok etgan edi.

"Tashkiliy ratsionalizatorlik takliflar" nominatsiyasida Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari laboratoriyasi muhandisi J. Nosirovning "№1 sonli utilizatsiya qilish qozonxonasini avtomatlashtirish va boshqarish" loyihasi eng yaxshi deb topildi. Ikkinchi



o'rin Energetika bo'linmasi yetakchi muhandisi F. Nosirovga berildi. U metodik pechning bug'lanish-sovutish tizimini takomillashtirish va Energetika bo'linmasining №1 qozonxonasida kimyoviy tozalangan suv ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish taklifi bilan ishtirok etgan edi.

Bosh energetik xizmati muhandisi T. Kovalchukning "Stansiyaning tabiiy gazni hisobga olish moslamasida magistral gaz quvurining aylanma liniyasiga hisoblagich o'rnatish" bo'yicha loyihasi uchinchi o'ringa loyiq deb baholandi.

Tanlovda barcha ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi. G'oliblar va sovrindorlar esdalik sovg'alari va diplomlar bilan taqdirlanilar.

## ISHLAB CHIQRISHDA MANFAATLAR TO'QNASHUVIGA QARSHI KURASHISH


SHAXSIY MANFAATLAR KASBIY  
MAJBURIYATLARGA TA'SIR QILMASIN!

**"O'zmetkombinat" AJ Markaziy Osiyodagi yetakchi qora metallurgiya korxonasi hisoblanadi. 80 yil avval tashkil etilgan kombinat iqtisodiyotning strategik tarmoqlari - qurilish, mashinasozlik, energetika, transport va boshqa ko'plab sohalar uchun asosiy metall mahsulotlari yetkazib beruvchi hisoblanadi. Kombinatsilg'or texnologiyalar va yuqori malakali mutaxassislar tufayli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlab, ekologik toza ishlab chiqarishni ta'minlab mamlakatimiz sanoat rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.**

Bugungi global jahon iqtisodiyoti va raqobatning kuchayishi sharoitida ishlab chiqarishda axloqiy me'yorlarga rioya qilish va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashish masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Manfaatlar to'qnashuvi xodimning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat. Shuni tushunish kerakki, manfaatlar to'qnashuvi har doim ham qonunning buzilishi yoki jinoyat emas, lekin bu kompaniyaning obro'siga putur yetkazishi va hamkorlari hamda jamiyat tomonidan unga bo'lgan ishonchning yo'qotilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xavfdir.

Joriy yilning 5-iyun kuni O'zbekistonda davlat va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida, jumladan, biz kabi yirik kompaniyalarda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beruvchi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatining shaffofligini oshirishda muhim qadam bo'ldi.

Qonun manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan omillarni yo'qotishga hamda uni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarini yaratish maqsadida ishlab chiqilgan. Qonunga muvofiq, har bir xodim korporativ va kasbiy andozalarga rioya qilishi, shaxsiy manfaatlarining o'z kasbiy majburiyatlariga ta'sir etishiga yo'l qo'ymasdan, faqat kompaniya manfaatlarini ko'zlab harakat



qilishi shart.

"O'zmetkombinat" AJ o'z faoliyatida halollik tamoyillariga qat'iy amal qilib kelgan va yangi qonun kelgusi taraqqiyotimizda biz tayanadigan muhim dasturilamaldir. U manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va tartibga solishning huquqiy asosini ta'minlaydi va quyidagi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi:

- ehtimoliy xavflarni baholash. Kompaniya uchun manfaatlar to'qnashuvi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni tezda aniqlash va tartibga solish muhimdir. Bu xodim o'z qarindoshlari yoki do'stlariga foyda keltirishi mumkin bo'lgan qaror qabul qiladigan holatlarni o'z ichiga olishi mumkin;

- nazorat tizimini yaratish. Qonunda manfaatlar to'qnashuvi holatlarini nazorat qilish tizimini majburiy joriy etish belgilangan. Bu me'yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta'minlash uchun muntazam auditlar, ish faoliyatini monitoring qilish va xodimlarning ish faoliyatini tekshirishni o'z ichiga olishi mumkin;

- ta'lim va savodxonlik. Kompaniya xodimlari axloq qoidalari va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha majburiy o'quv mashg'ulotlarida qatnashadilar. Bu

ularning manfaatlar to'qnashuvi holatlaridan xabardorligini oshiradi va ularning oldini olish ko'nikmalarini shakllantiradi;

- xabar berish tartibi. Qonunning eng muhim jihatlardan biri shundaki, har bir xodim manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat haqida rahbariyatni o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Bu kompaniya va xodimga salbiy oqibatlarining oldini olib, vaziyatni tezda ko'rib chiqish va uni tartibga solish imkonini beradi;

- qonunni buzganlik uchun javobgarlik. Qonunda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarga rioya qilmaganlik uchun javobgarlik ham nazarda tutilgan. Bu esa intizomiy jazo choralarini, ayrim hollarda ma'muriy yoki hatto jinoiy oqibatlarni ham nazarda tutadi.

Biz butun kompaniyaning obro'si va muvaffaqiyati har bir xodimga bog'liqligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun har bir metallurg, muhandis, rahbar va mutaxassis "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunga rioya qilishi muhimligini tushunishi kerak. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xodimlarning huquqlarini himoya qilish va korporativ qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, kombinatning barcha xodimlarini halollik va shaffoflik madaniyatini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishga chaqiraman.

Hurmatli metallurglar!

Agar siz manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatga duch kelsangiz, iltimos, rahbariyatni bundan xabardor qiling! Zamonaviy kompaniyada har bir xodim o'z harakatlarining muhimligini va uning harakatlari barchaning obro'si va iqboliga ta'sir ko'rsatishini yaxshi tushunadi. Korxonamizda halollik va shaffoflikni ta'minlashga qo'shgan hissangiz "O'zmetkombinat" AJ va butun mamlakatimiz porloq kelajagiga qo'shgan hissangizdir.

T. BUDEY,

**"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisining moliya-iqtisodiyot va transformatsiya bo'yicha birinchi o'rinbosari.**

## KORRUPSIYA - TARAQQIYOT DUSHMANI

**Hozirda har bir rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiy etishiga "Korrupsiya" illati qarshilik ko'rsatib kelmoqda. Shu boisdan ham korrupsiyaga qarshi kurashish butun dunyo mamlakatlarning dolzarb muammasi bo'lib qolmoqda.**



Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab "9-dekabr - Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" sifatida belgilangan. "O'zmetkombinat" AJda Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazildi. Mazkur tadbirda kombinat rahbarlari, tarkibiy bo'linma boshliqlari, Bekobod shahar hokimligidan, huquqni muhofaza qilish idoralari va sud organlari rahbarlari ishtirok etishdi.

Tadbirda "O'zmetkombinat" AJ, Boshqaruv raisi o'rinbosari - Umumiy masalalar bo'yicha direktor Akmal Sharipov so'zga chiqdi. U kombinatda

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ularni kamaytirish, rahbar va xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida ma'ruza qildi. Bekobod shahar Prokurori o'rinbosari A'zam Nurutdinov, Fuqarolik ishlari bo'yicha Bekobod tumanlararo sudi raisi Jamshid Otaboyev, Bekobod tumanlararo iqtisodiy sudi raisi Xushnud Karimov va Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sud'yasi Farhod Zokirov, Bekobod shahar Ichki ishlar bo'limining tashkiliy bo'linmasi boshlig'i, mayor, Hamidulla Alimov, Bekobod shahar Adliya bo'limi boshlig'i Jamshid Norqo'ziyev hamda

"O'zmetkombinat" AJ Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi bo'lim boshlig'i Soyibjon Dadayev, Bekobod shahar hokimi maslahatchisi Ulug'bek Abdunazarov korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar haqida so'zga chiqdilar. Shuningdek, ishtirokchilar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati va olib borilayotgan islohotlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oqibatlari, davlat xizmatchilarining kasbiy odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvi va uni bartaraf qilish masalalari bo'yicha ham ma'lumotlar olishdi.

Ismoil UMMATOV.

## ICHKI VA TASHQI BOZORLARDA TALAB YUQORI

Joriy yilning 11 oyi mobaynida "O'zmetkombinat" AJda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilishda yaxshi natijalarga erishildi.

Mahsulotlar orasida qora metallar prokati, mis va mis qotishmalaridan tayyorlangan mahsulotlar, issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar, argon, ferrosilitsiy, shuningdek, sirlangan po'lat idishlar kabi mahsulotlar mavjud.

Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar, argon va ferrosilitsiy mahsulotlarini eksport qilishda kutilganidan ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Ularni eksport qilish prognozi 109 foizga bajarildi. Bu mahsulotlar ham ichki, ham tashqi bozorda barqaror talabga ega bo'lib, ularning sotish hajmi tobora ortib bormoqda.

Shunga ham alohida to'xtalib o'tish kerakki, sirlangan po'lat idishlarning eksporti ham sezilarli darajada oshdi. 11 oyda bu boradagi prognoz 120 foizni tashkil etdi.

Mahsulotlarimizning sifati yuqoriligi, raqobatbardoshligi va tannarxi iste'molchilarga ma'qul kelishi xorij davlatlariga ularni eksport qilish geografiasini muvaffaqiyatli kengaytirish imkonini bermoqda.

Eksport majburiyatlarini muvaffaqiyatli bajarishdagi asosiy omillarga ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va logistika infratuzilmasini takomillashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Qolaversa, xorijiy hamkorlar bilan faol aloqalar, o'zgaruvchan bozorlar sharoitida moslashuvchanlik va mahsulot sifatiga e'tibor kombinatga xalqaro maydonda o'z mavqeini saqlab qolish imkonini bermoqda.

"O'zmetkombinat" AJning strategik maqsadlariga erishish va eksport salohiyatini mustahkamlashga bo'lgan intilishi o'zining kutilgan natijalarini bermoqda. Bu esa o'z navbatida kelgusi yilda yangi yutuqlarga erishish uchun ishonchli poydevor yaratmoqda.

Nigora AHMEDOVA.

O'tmishda yashab ijod qilgan ulug' bobokalonlarimizning ibratli hayoti, serqirra faoliyati, ilm-fan rivoji yo'lidagi olamshumul ishlari bugun ham jahon ahlini hayratga solib kelmoqda. Ana shunday buyuk ajdodlarimizdan biri qomusiy olim Ahmad Farg'oni jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan allomalardan biri.

### BUYUK AJDODLARIMIZ

## JAHON AHLINI HAYRATGA SOLADI


Buyuk astronom, matematik va geograf Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oni 797-865-yillarda yashab ijod qilgan. Farg'ona vodiysining Qubo (Quva) qishlog'ida tug'ilgan.

Ahmad Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" nomli asari o'n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Ahmad Farg'oni tomonidan bu asarida olamning tuzilishi, Yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishiga ega ekani xususidagi dalillar mavjud bo'lib, mazkur kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya bo'yicha asosiy darslik sifatida o'qitib kelingan hamda Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Er meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oni hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim", deya dastxat qoldirgan.

Ahmad Farg'oniyning amaliy yutuqlaridan biri uning o'rta asrlardagi asosiy astronomik asbob - usturlob nazariyasini ishlab chiqqani va shuningdek, Nil daryosida "nilomer" degan, ko'p asrlar davomida suv sathini o'lchaydigan asosiy vosita sifatida xizmat qilib kelgan mashhur inshootni yaratgani bo'ldi.

Hozirgi kunda buyuk alloma Ahmad Farg'oniyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Ular quyidagilardir: yuqorida zikr etilgan asar.



"Asturlob yasash haqida kitob" - qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, "Asturlob bilan amal qilish haqida kitob" - birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), "Farg'oni jadvallari" - qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), "Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola" - qo'lyozmasi Qohirada, "Yetti iqlimni hisoblash haqida" - qo'lyozmalari Gotada va Qohirada, "Quyosh soatini yasash haqida kitob" - qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi.

Buyuk alloma Ahmad al-Farg'oniyning nomi Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflari asarlarida g'urur va iftixor bilan tilga olinadi va o'rganiladi.

O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan. YUNESKO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad Farg'oni tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Quva va Farg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi, Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oni nomi berildi.

### OLY TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH HAMKORLIGI

## TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI

Respublikamizda oliy ta'lim tizimi ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash orqali malakali mutaxassislar tayyorlashga intilmoqda. Ilm-fan sohasidagi olinayotgan ilmiy natijalarning bevosita ishlab chiqarishga tatbiqiga alohida e'tibor qaratilyapti.

Shu sababli ham ilm sohasidagi mutaxassislar ishlab chiqarish jarayonini yaxshi tushinishlari uchun korxonalar bilan aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Mana shu sa'y-harakatlar tufayli oliy ta'limda ishlab chiqarishda bevosita tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan tadqiqotlar ustida ishlar olib boriladi. Ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaxshi tanish bo'lgan olimlarning tadqiqotlari korxonalar taraqqiyotini ham ta'minlaydi.

Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi Bekobod shahar hududiy filiali fan va ishlab chiqarish hamkorligining mustahkamlanishiga katta yordam ko'rsatib kelmoqda. Ularning tashabbuslari bilan ilm ahlining "O'zmetkombinat" AJga tashriflari tashkil etilmoqda. Natijada olimlar va oliy ta'lim muassasalari talabalarining kombinatimiz bilan yaqindan tanishishlari, ishlab chiqarish jarayonlarini o'rganishlari uchun imkoniyatlari kengaydi.



Kombinatimizga olimlarning ana shunday tashriflaridan biri o'tgan hafta tashkil etildi. O'tgan hafta Toshkent Davlat Texnika universiteti Olmaliq filiali o'qituvchi-olimlari "O'zmetkombinat" AJ bilan tanishish maqsadida kelishdi. Mehmonlar sayohatni dastlab kombinat tarixi muzeyidan boshlashdi. Shu joyda kombinatning tarkibiy bo'linmalarida bugungi kunda olib borilayotgan ishlar hamda korxonaning 80 yillik tarixi bilan tanishishdi.

Shundan so'ng Elektrda po'lat eritish bo'linmasidagi ishlab chiqarish jarayonlarini borib ko'rishdi. Tanishtiruv davomida olimlarga ishlab chiqarish jarayonlari haqida tarkibiy bo'linma mutaxassislari hamda mehnat faxriylari batafsil ma'lumotlar berishdi. Mehmonlar mana

shunday amaliyotni tashkil qilgan kombinat rahbariyati hamda Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashi Bekobod shahar hududiy filialiga o'zlarining minnatdorchiligini bildirishdi.



Olimlarning kombinat ishlab chiqarishini mana shunday yaqindan o'rganishlari ilmiy izlanishlar mavzusi kengayishiga va yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari ko'payishiga xizmat qiladi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining mana shunday rivojlanib borishi kombinatimiz taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Bahodir RAHMONQULOV.

## ULAR BIZNING FAXRIMIZ

## HURMATGA MUNOSIB INSON

Lavhamiz qahramoni Hamidjon Gulmurodov 1995-yil "O'zmetkombinat" AJning Idoraviy harbiylashtirilgan qorovulligida ish boshlagan edi. Mehnatsevar, qiyinchilikdan cho'chimaydigan Hamidjon aka qisqa vaqt ichida hamkasblari orasida o'z o'rnini topdi.



Faoliyati davomida shaxsiy manfaatini kombinat manfaatidan ustun qo'ymadi. Kasbi ortidan halol topgani bilan ro'zg'or tebratdi. Farzandlari ham shularni ko'rib katta bo'ldi, otasidan o'rnak oldi.

Kombinatda 29 yil faoliyat yuritdi. U o'zi ko'z yumib ochguncha o'tgan qisqa fursat, deya ta'riflagan bu yillar mobaynida jamoada o'zidan munosib nom qoldirdi.

- Hamidjon aka bilan 16 yil birga ishladik. U hurmatga munosib inson, vijdonan ishlar, mehnati bilan boshqalarga ibrat edi, - deydi Idoraviy harbiylashtirilgan qorovullik smena boshlig'i Farhod Ergashboyev.

H. Gulmurodov "Metallurg minbari" gazetasining jamoatchi muxbiri sifatida ham metallurglarga yaxshi tanish. Uning kombinat hayotidan, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda yozgan maqolalari ko'pchilikka manzur bo'lgan.

U 4 nafar farzand uchun jonkuyar ota. O'zi istiqomat qilayotgan Bekobod tumanidagi "O'zbekobod" mahallasida suv chiqishi qiyin bo'lgan joyda bog' tashkil etib, savobli ishni amalga oshirgan.

Mehnati, insoniy xislatlari bilan e'tibor topgan H. Gulmurodov yaqinda izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatildi.

Ismat DIYOROV.

MEHNATDAN  
E'ZOZ TOPDI

Esimda, opam 1990-yil 9-sinfni bitirib, o'qimayman, shahrimizdagi O'zbekiston metallurgiya zavodiga ishga kiraman, deb oyoq tirab oldi. Rahmatli ota-onam institutda o'qitamiz, desalar ham istamadi. Opam rahmatli Boburjon amakimning xotini Mahfuza kelinoyimning zavodda ishlashlariga havas qilardi. Va ularga ishga kirmoqchiligini bildirib, birga "O'zmetkombinat"ga borib ishga kirish uchun ariza yozib keldi.

1990-yil 19-dekabr kuni katta opam qizchali bo'ldi. Eshitib rosa xursand bo'ldik. Birinchi jiyancha... Oilamizda xursandchilik shukuh kezip yuribdi. Tushdan keyin yana bir xursandchilik: kichik opam Zuhaxonim zavodga ishga kiribdi.

Shunday qilib opajonim o'zi tanlagan kasb egasi bo'lish uchun ishga kirdi. Chaqaloqning qadami qutlug' keldi deb, yana uyda bayram bo'ldi.

Aytishga oson - 34 yildan buyon opam "O'zmetkombinat" AJda ishlab kelmoqda. Balandda o'tirib, kran haydash ham og'ir. Bunga katta matonat kerak. Ana shunday matonat egasi, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmasi kran boshqaruvchisi, mehri ummon, fidokor opajonim Z. Boyto'rayeva ko'p yillik mehnatlari uchun "O'zmetkombinat" AJning 80 yilligi munosabati bilan "Kombinat ravnaqiga hissa qo'shganligi uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu xabarni eshitib barchamiz xursand bo'ldik.

MEDALLARI  
YARASHGAN OPAM!

O'ttiz to'rt yil to'kib qora ter,  
Yigitlarni tishlatib goh yer,  
Kran haydar, xuddiki bir er,  
Medallari yarashgan opam!

Ishlar fido qilib jonini,  
Oqlab yeydi topgan nonini,  
Xush o'tkazar har bir onini,  
Medallari yarashgan opam!

Besh farzandin yedirib halol,  
Ham o'stirdi ish kelmay malol,  
Mehnatlari ketmadi zavol,  
Medallari yarashgan opam!

Ishi og'ir, lek bor matonat,  
Omonatga qilmas xiyonat,  
Dilida bor vijdon, diyonat,  
Medallari yarashgan opam!

Allah umr bersin ziyoda,  
Martabangiz oshib dunyoda,  
Sog' va omon bo'ling doimo,  
Yursangizda goho piyoda!

Medallari yarashgan opam,  
Onamdayin mehribon opam!

Munira SULTON.

TAASSUROTLAGA  
BOY BO'LDI

Ishchi-xodimlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, madaniy hordiq chiqarishlari uchun kombinatda bir qator tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Yaqinda kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi tashabbusi bilan bir guruh kombinat ishchi-xodimlari Toshkent shahrida bo'lib qaytishdi. Kasaba uyushmasi tomonidan xodimlar uchun esda qolarli jamoaviy hordiq tashkil etildi.



Ular poytaxtdagi yirik sportko'ngilochar majmuasi "Humo" arenada yangi yil bayrami munosabati bilan tashkil etilgan "Xalq korporativi" konsertini tomosha qilib keldilar. Konsert davomida ishchi-xodimlarimiz o'zbek estradasi yulduzlari tomonidan ijro etilgan qo'shiqlarni tinglab, unutilmas yorqin taassurotlarga ega bo'lishib, maroqli dam olishdi.

Ishchi-xodimlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun amalga oshirilayotgan shunday tadbirlar ularning korxonada yanada faolroq faoliyat olib borishiga xizmat qilmoqda.

Kombinatda ishchi-xodimlar va ularning oila a'zolari uchun madaniy hordiq tashkillashtirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. So'nggi paytlarda metallurglar farzandlari ko'proq Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar va O'zbekiston Milliy qo'g'irchoq teatrlarida qo'yilayotgan spektakllarni tomosha qilishlari uyushtirilmoqda.

## YANGI YIL TOMOSHASIDA

Ana shunday tadbirlardan birida metallurglar farzandlarining O'zbekiston milliy qo'g'irchoq teatriga tashriflari tashkil etildi. Teatrda bolajonlar Xans Kristian Andersenning "Qor malikasi" nomli mashhur ertagi asosida sahnalashtirilgan "Qor malikasi" spektaklini tomosha qildilar.

Ma'lumki, "Qor malikasi" - ko'pchilikning bolalikdan sevib tomosha qiladigan qishki ertak-filmi, spektakli hisoblanadi. Ertakdagi Kay va Gerda hikoyasi ko'pchilikka tanish bo'lib, uni turli davlatlarda turlicha talqin etishadi. "Qor malikasi" tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, samimiy do'stlik,

sadoqat va haqiqiy sevgi, shuningdek, yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alabasi haqida hikoya qiladi. Ajoyib spektaklda qo'rqmas Gerda Keyni Qor malikasi asirigidan ozod qiladi.

Mehr va muhabbatga to'la qalblar doimo bolalarni ezgulikka chorlaydi. Spektaklda bolajonlar qo'g'irchoq teatri san'atidan bahramand bo'lishib, ajoyib kayfiyat va unutilmas taassurotlarga ega bo'lishdi. Shuningdek ishchi-xodimlar yangi yil bayrami arafasida farzandlari uchun shunday madaniy hordiqni tashkillashtirganlarga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.



# MAQSAD – YONG‘IN XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH

**YANGI YIL BAYRAMINI TINCH VA OSOYISHTA O‘TKAZING!**

**Yurtimizga sovuq havoning kirib kelishi bilan oq elektr energiyaga bo‘lgan talab keskin ortib boradi. Bu esa o‘z navbatida yong‘inlarning ko‘payishiga olib keladi. Jami yuzaga kelgan yong‘inlarning 39,7 foizi elektr uskunalardan kelib chiqishi kuzatilgan.**

Hurmatli metallurklar!

Elektr qurilmalarini ishlatishda yong‘in va portlash xavfsizligini ta‘minlash uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga e‘tibor qaratsangiz maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– elektr moslamalarini xonalarga va hududlarga mos qilib, me‘yoriy hujjatlarga asosan tanlab loyihalashtirish;

– elektr moslamalarini me‘yoriy hujjatlarga va tuzilgan loyihalardan chetga chiqmagan holda montaj qilish;

– elektr moslamalarini to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish, ya‘ni nosoz elektr moslamalaridan foydalanmaslik, har bir elektr moslamasining ishlatish pasportiga yoki undagi birkada ko‘rsatilgan ma‘lumotlarga asosan ishlatish, bundan tashqari doimiy nazoratdan va sinovdan o‘tkazib turilishi kerak.

Elektr qurilmalaridan yong‘inlarning kelib chiqishiga quyidagilar asosiy sabab bo‘lmoqda:

– elektr simlarida qisqa tutashuv oqibatida uchqun chiqishi;

– elektr qurilmalarining ortiqcha yuklanishi oqibatida ustki qismlarining qizishi;

– elektr qurilmalarining ulash (kontakt) joylarida qarshilikning ortishi oqibatida uchqun chiqishi va qizishi;

– nosoz yoki qo‘lbola elektr qurilmalaridan foydalanish;

– himoya apparatlari o‘rnida (saqlagichlarda) har xil yasama yoki vaqtinchalik simchalarni (juchoq) qo‘llash;

– elektr qurilmalarini uzoq muddatga nazoratsiz qoldirish;

– himoya apparatlarini, ya‘ni saqlagichlar va avtomatlarni doimo ishchi holatda ushlash;

– vaqtinchalik tortilgan elektr simlaridan foydalanish.



Yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarning oldini olish doimiy mas‘uliyat talab qiladigan vazifadir. Shunday ekan, ana shu mas‘uliyatni dildan his qilib, siz nafaqat davlat va shaxsiy mol-mulkingizni asrab qolgan, balki yaqinlaringiz hamda farzandlaringiz xavfsizligini ham ta‘minlagan bo‘lasiz. Zero, yong‘inni o‘chirgandan ko‘ra, uning oldini olgan afzal.

**Sherzod ZIYAYEV,**

**Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar bo‘limining O‘ta muhim toifalangan ob‘ektlarning yong‘in xavfsizligini ta‘minlashni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik.**

**Adham NIYOZOV,**

**Toshkent viloyati FVBning O‘MTOYOXTTEB inspektori, katta leytenant.**



## PIROTEKNIKA O‘YINCHOQ EMAS

Yangi yil bayrami yaqinlashgani sayin piroteknika vositalarining quloqni qomatga keltiruvchi ovozi tez-tez eshiltila boshlaydi. Aslida piroteknika vositalari inson salomatligiga jiddiy xavf soladi. Xususan, tananing yuz, ko‘z, qo‘l soharlarida og‘ir chuqur kuyish jarohatlarining yuzaga kelishi, ko‘zlarning shikastlanishi natijasida ko‘rish faoliyatining qisman yoki butunlay buzilishiga olib keladi.



to‘laysiz. Ushbu kodeksning 185-1-moddasining yangi tahririga asosan piroteknika vositalaridan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun BHMning 5 baravaridan 20 baravarigacha jarima solinishi mumkin.

Shu moddaning 2-qismida piroteknika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo‘natish, xuddi shuningdek ularni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqqanlik uchun 5 625 ming so‘mdan 11 250 ming so‘mgacha jarima belgilangan.

Piroteknika vositalarini sotganlar esa jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qadrli metallurklar!

Yangi yilni nishonlashda farzandlaringizning piroteknika vositalarini sotib olish va undan foydalanishlariga yo‘l qo‘ymang. Ana shunda siz oilangiz bilan yangi yil bayramining tinch va osoyishta o‘tishini ta‘minlagan bo‘lasiz.

**Diyor NAMOZOV,**

**“O‘zmetkombinat” AJ OYOXTTEB katta inspektori, katta leytenant.**



## QOIDALARGA RIOYA QILING!

Yangi yil archasini bezatishda yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat‘iy rioya qiling. Archani bezatishda yoritish chiroqlarini sozligiga, elektr uskunalarning me‘yor talablariga javob beradigan, ya‘ni kam kuchlanishda ishlaydigan elektr chiroqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Archa shoxlari shift va devorlardan 1 metr dan kam bo‘lmagan uzoqlikda, mustahkam taglikka o‘rnatilishi va xonadan chiqish yo‘laklarni to‘siq qo‘ymasligi hamda isitish vositalari yoniga o‘rnatmaslik lozim. Archa yonida elektr toki uzaytirgich o‘rnatish mumkin emas.

Shuningdek, archani selluloidli o‘yinchoqlar hamda olovdan himoya qilish tarkibi bilan ishlov berilmagan (shimdirilmagan) doka, paxta va sintetik hamda har xil yonuvchi mahsulotlar bilan bezatmaslik lozim. Archa yonida ochiq olovdan foydalanish taqiqlanadi, archani bezatishda maxsus va xavfsiz yoritish vositalaridan foydalanish lozim.

Bayram tadbirlari davomida yoyli projektorlar, shamlar va paqildoqlarni ishlatish, mushakbozlik qilish hamda yong‘inga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa yong‘in xavfi mavjud yoritish effektlarni uyushtirmaslik hamda olovli va boshqa yong‘in va portlash xavfi mavjud ishlarni bajarmaslik lozim.

## IS GAZIDAN ZAHARLANMASLIK UCHUN NIMA QILISH KERAK?

Is gazi benzin, solyarka, mazut, tabiiy gaz, ko‘mir, o‘tin kabi har qanday uglerodli yonilg‘i to‘liq yonmaganda hosil bo‘ladigan gaz.

Kundalik hayotda is gazi, aksariyat hollarda isitish pechi va dudbo‘ron nosozligi tufayli hosil bo‘ladi. Ko‘p xonadonli uylarda – gaz plitkasidan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida hosil bo‘lishi mumkin.

Is gazidan zaharlanmaslikning asosiy qoidalar:

- mutloq yopiq bino ichida olovli isitish pechlaridan foydalanmang;
- istish pechlari va gaz plitalarini qarovsiz

yoqib qoldirmang;

– gaz plitasi ishlayotgan xonada havo almashuv tizimi ham yaxshi ishlashi kerak;

– foydalanish qoidalarini bilmagan shaxslar gaz uskunalaridan foydalanmasligi kerak.

Agar biror kishi is gazidan zaharlansa uni darhol toza havoga olib chiqish, nashatir spirti hidlatish va tez yordam chaqirish kerak. Jabrlanuvchi o‘ziga kelmaganda sun‘iy nafas oldirish kerak.

**Javlon UMRZOQOV,**

**“O‘zmetkombinat” AJ OYOXTTEB inspektori, serjant.**

**Sahifa maqolalari kombinatning Favqulodda vaziyatlar va radiatsiya xavfsizligi bo‘limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.**



## MO'MAY DAROMAD ILINJIDA

## OCHIQ SAYYOR SUD MAJLISIDA

**Xalqimizning farovon turmush kechirishi uchun imkoniyat hamda shart-sharoitlar yetarli. Inson omili oliy qadriyat sifatida e'tirof etilib, bu maqsad islohotlar, rivojlanishlar, bunyodkorliklarning asl mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda. Har birimiz ham mana shu maqsadlarning to'liq amalga oshishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.**

Biroq, ayrim shaxslar o'zlarining kattami yoki kichikmi g'arazli manfaatlarini umumjamoa manfaatlaridan ustun qo'yib, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ladilar. Natijada bundaylar noqonuniy mo'may daromad ilinjida yurt taraqqiyoti va xalq farovonligiga zarar yetkazishadi.

Yaqinda Bekobod shahar sudi binosida, ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi. Unda "Vulkan beton" MCHJda yuk tashuvchi avtomobil haydovchisi bo'lib ishlaydigan Hayotjon Toshboyevga nisbatan to'plangan ma'muriy ish ko'rib chiqildi.

Bu huquqbuzar 2024-yil 4-noyabr kuni "O'zmetkombinat" AJga ish bilan keladi. Ishini bitirib avtomobili bilan kombinatning 4-sonli nazorat o'tish joyidan chiqmoqchi bo'ladi. Shu joyda harbiy xizmatchilar tomonidan uning boshqaruvidagi avtomashina tekshiriladi. Tekshirish jarayonida

harbiylar avtomashinaning yukxonasidan hech qanday hujjatlarsiz umumiy qiymati 350 000 so'm bo'lgan 2 kub metr taxtalar yashirincha olib chiqib ketilayotganligini aniqlashadi.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan H. Toshboyev o'z aybiga iqrar bo'ldi. Haqiqatdan ham u 4-noyabr kuni "O'zmetkombinat" AJning hududidan 2 kub metr taxtani ruxsatsiz olib chiqmoqchi bo'lgan. U qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligini bildirib, suddan jazo tayinlashda yengillik berishni so'radi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrarlik ko'rsatmasidan tashqari, dastlabki surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonnoma, ashyoviy dalilni olish bayonnomasi, tushuntirish xatlari hamda to'plangan ish



hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topganligini aniqladi.

Huquqbuzarga nisbatan jazo qo'llashda uning shaxsi, yoshi, oilaviy sharoiti va moddiy ahvoli, aybiga iqrarligi, sodir etilgan huquqbuzarlikning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi hamda yetkazilgan moddiy zarar to'liq qoplanganligi inobatga olinib, unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosi qo'llanildi.

Sud qarori bilan H. Toshboyev O'zbekiston Respublikasi MJtKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli deb topildi. Unga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari hajmida - 375 000 so'm jarima jazosi qo'llanildi.

**X. XALIKOV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bekobod shahar sudi raisi.

\* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \* MULOHAZA \*

## MOBIL ALOQA BOLALAR UCHUN XAVFLIMI?

Bilamizki, mobil telefonlardan foydalanishning afzal tomonlari bilan birga, salbiy oqibatlari ham mavjud. Ayniqsa, bolalarning sog'lig'i va ta'lim-tarbiyasida.

## OLIMLAR NIMA DEYDI?

Olimlar bolalarga, uyali aloqa telefonlaridan foydalanishga ruxsat bermaslik kerak, deb tavsiya qilishmoqda. Bu tavsiyalarga ko'p yillik tadqiqotlar sabab bo'lmoqda. Aks holda bolalarda miya o'simtasi paydo bo'lishi ehtimoli katta bo'lishi mumkin, deb aytishmoqda shifokorlar.

Shvesiyada o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari shuni ko'rsatdiki, uzoq vaqt uyali aloqadan foydalanayotgan kishilarda quloq va miya o'simtasi rivojlanishi ehtimoldan xoli emas. Xuddi shunday izlanishlar Gollandiyada ham o'tkazildi. Ularga ko'ra, telefon stansiyalari yaqinlarida yashovchi kishilar boshqalarga qaraganda o'z sog'liqlaridan ikki barobar ko'proq shikoyat qilmoqdalar va ularning ko'pchiligida saraton kasalligi aniqlanmoqda. Yana bir tekshiruv, Yevropa ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan dastur shuni ko'rsatdiki, uyali aloqa to'lqinlari inson organizmi hujayralariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni yakson qilishga sababchi bo'ladi.

Shvesiya olimlarining bayonot berishicha, akustik to'lqinlar markaziy asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Aynan telefon qaysi tarafda foydalanilsa, shu tarafdagi miya faoliyatini ko'proq kuchsizlantirmoqda va zararli o'simta hosil bo'lishiga olib kelmoqda", - deyishmoqda mutaxassislar.

Hali ilmiy jarayonlar davom etmoqda. Ammo bir narsa qat'iyani aniqki, nurlanishga birinchi bo'lib yosh avlod duchor bo'ladi.



Yaqinda Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti bolalarning mobil telefonlardan foydalanishini qonunan cheklashga chaqirdi. Bu chaqiriqda o'yinlar va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar ruhiy

va jismoniy salomatligiga salbiy ta'siri kuchayib borayotgani ta'kidlangan.

RIVOJLANGAN  
DAVLATLARDA NIMA GAP?

Jahonning ko'plab rivojlangan davlatlarida bolalarning mobil telefonlardan foydalanishlari, ijtimoiy tarmoqlarga kirishlari cheklanmoqda va ta'qiqlanmoqda. O'tgan oyda Avstraliyada 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning ijtimoiy tarmoqlarga kirishini taqiqlovchi qonun qabul qilindi. Buyuk Britaniya maktablarida telefonlardan foydalanish to'liq taqiqlangan. Ta'lim vazirligining ma'lum qilishicha, qirollikda 12 va undan katta yoshdagi bolalarning 97 foizi shaxsiy qo'l telefoniga ega. Tadqiqotlar natijasida, mobil qurilmalardan foydalanish taqiqlangan maktablarda ta'lim sifati yaxshi ekani aniqlangan.

Turkiya 13 yoshgacha bo'lgan bolalarga ijtimoiy tarmoqlar va smartfonlardan foydalanishni taqiqlashni rejalashtirmoqda. Xitoyda voyaga yetmaganlar uchun mobil qurilmalar va internetdan foydalanish bo'yicha yangi qoidalar loyihasi taqdim etildi. Agar qonun loyihasi qabul qilinsa, o'smirlar kuniga ko'pi bilan 2 soat smartfondan foydalanish bilan cheklanadi.

Avstraliya, Viktoriya, Tasmaniya hududlarida, Fransiya, Ispaniya va Chexiya davlatlari tomonidan ham bolalar uchun mobil telefonidan foydalanishda cheklovlar qo'yilgan.

Bangladeshdagi maktab va kollej o'qituvchi va o'quvchilarining mobil telefondan foydalanishi taqiqlangan.

O'ZIMIZDA HAM  
CHEKLOVLAR KIRITILGAN

Maktab o'quvchilarining mobil telefonidan foydalanishga cheklovlar o'rnatish borasida o'zimizda ham amaliy qadamlar qo'yilgan. Xususan, maktablarimizdagi mobil telefondan foydalanish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida tartibga solingan.



Qarorga ko'ra, maktabga kirib kelishda har bir o'quvchi, xodim va boshqa shaxslar o'z telefoni ovozi to'liq o'chirib qo'yishi shart. O'quvchilar telefondan foydalanish tartibini buzganda ogohlantirish, ularning kundalik daftariga yozib qo'yish va ota-onalarini xabardor qilish kabi choralar ko'riladi.

TELEFONLARDAN VOZ  
KECHOLMAYMIZ, AMMO...

Xalqaro o'rganishlar jarayonida mobil telefondan foydalanish nurlanish, miya o'simtasi paydo qilishidan tashqari, jismoniy jihatdan, bolalarda yurak-qon tomir tizimidan aziyat chekish holatlari aniqlangan. Shuningdek, tekshiruvlarda mobil telefonlardan uzoq muddat foydalanish bolalarning jismoniy va ruhiy holatiga, xususan, giperaktivlik, uyqusizlik, asabiylik, xotira va e'tiborning pasayishiga, bu esa o'z navbatida darslarni o'zlashtirishiga salbiy ta'sirini o'tkazishi ma'lum bo'lgan.



Mobil telefonlardan baribir voz kecholmaymiz. Ulardan foydalanish albatta yaxshi, faqatgina me'yorga rioya qilish kerak. Shuningdek, uning insonlar, ayniqsa, yosh bolalarning salomatligiga salbiy ta'sir etishini doimo yodda tutish lozim. Aks holda...

**Diyor ZULFIQOROV.**

**Ayollarning yuklarni ko'tarish va tashish islarida mehnat qilishlari ta'qiq-langanmi?**

S. Xudoyorova.



## YUKLARNI KO'TARISH TAQIQLANADIMI?

Ish beruvchi kasaba uyushma qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishuvga ko'ra tasdiqlanadigan tavsiyalarni inobatga olib, noqulay mehnat sharoitlariga ega bo'lgan, ayollarning mehnatidan foydalanish cheklanadigan ayrim ishlar ro'yxatini belgilashga haqli. Ayollar tomonidan ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p normadan ortiq bo'lgan og'ir yuklarni ko'tarish va tashish taqiqlanadi.

Bu haqda Mehnat kodeksining "Ayollar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha qo'shimcha choralar" deb nomlangan 393-moddasida belgilangan.

Ayollarning og'ir yuklarni ko'tarishi va tashishi chog'ida ular uchun yo'l qo'yiladigan eng ko'p yuklamalar O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo'yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

## TEXNIK KO'RIK DAN QACHON O'TKAZILADI?

**Keyingi yillarda avtomobil-larni texnik ko'rikdan o'tkazish muddatlarida o'zgarishlar bo'ldi. Endilikda jismoniy shaxslarning mashinalarini texnik ko'rikdan o'tkazish muddatlari qanday belgilangan?**

S. Botirov.

Mamlakatimizda avtotransport vositalari haydovchilari uchun qo'shimcha qulayliklarni yaratish, aholining avtotransport vositalaridan foydalanish bilan bog'liq muammolarini tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, fuqarolarimizning bu boradagi istaklari amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida 2022-yil 28-iyun kuni Prezident qarori qabul qilindi. "Avtotransport vositalaridan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi bu qarorda qachon avtomobillarni texnik ko'rikdan o'tkazish kerakligi belgilangan.

Unga muvofiq 2022-yil 1-sentabr-dan boshlab:

a) ishlab chiqarilganiga o'n yil-gacha bo'lgan jismoniy shaxslar-



ga tegishli yengil avtomototransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi;

b) yengil avtomototransport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazishning quyidagi muddatlari belgilandi:

ishlab chiqarilganiga o'n bir yildan o'n to'rt yilgacha bo'lgan yengil avtomototransport vositalari - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga o'n besh yil va undan ortiq bo'lgan yengil avtomototransport vositalari - bir yilda bir marta.

Bunda mazkur muddatlar tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyatida foydalaniladigan yengil avtomototransport vositalari uchun tatbiq etilmaydi.

## QOLIB KETGAN TA'TILNI OLISH MUMKINMI?

**Xodim 2023-yilda qolib ketgan ta'tilini 2025-yilda olishi mumkinmi?**

A. Akbarov.

Mehnat kodeksida xodimni o'tgan yillar davomida foydalanilmagan ta'tilini olishi bilan bog'liq hech qanday cheklovlar mavjud emas. Xodim istagan vaqtida ish beruvchi bilan kelishgan holda o'tgan yillar davomida foydalanilmagan ta'tilini yaxlit va yoki qismlarga bo'lgan holda olishga haqli. Agar ish beruvchi tomonidan xodimga 2023-yilda ta'til berilmagan bo'lsa, bu huquqbuzarlik hisoblanadi. Bu holat uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda javobgarlik bor. Mehnat kodeksining 230-moddasi 1-qismiga asosan har yilgi mehnat ta'tili har yili, ushbu ta'til berilayotgan ish yili tugaguniga qadar berilishi kerak.

Agar buning imkoni bo'lmagan taqdirda ham kamida 14 kalendar kun ta'til berilishi kerak. Chunki, ishlab chiqarish xususiyatiga ega sabablarga ko'ra joriy yilda har yilgi mehnat ta'tilini to'liq berish imkoni bo'lmagan alohida hollarda



xodimning roziligi bilan ta'tilning o'n to'rt kalendar kundan ortiq bo'lgan qismi keyingi ish yiliga ko'chirilishi mumkin bo'lib, ushbu yil davomida undan foydalanilishi shart deb belgilangan. (MK 230-moddasi 2-qism).

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi xodim bu qolib ketgan ta'tilini pullik kompensatsiyaga almashtirsa bo'ladimi? Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga barcha foydalanilmagan har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillari uchun pulli kompensatsiya to'lanadi. (MK-234-moddasi).

Qolib ketgan ta'tilni olish tartibi qanday rasmiylashtiriladi? Avvalo xodim tomonidan mazkur qolib ketgan ta'tildan foydalanish to'g'risida ish beruvchiga ariza yoziladi. Shundan so'ng mazkur ariza asosida ish beruvchining buyrug'i chiqarilib xodim ta'tilga chiqariladi.

## MANFAATLAR TO'QNASHUVI:

### MUKOFOT BERILADIMI?

**Manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar berganlarga mukofot puli beriladimi?**

A. Nodirov.

2024-yil 5-iyun kuni "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi prezident qarori qabul qilindi. Shu kuni "O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni ham Prezident tomonidan imzolandi. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran



olti oy o'tgach kuchga kiradi.


Endilikda qonunchilikka ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari xodimlari faoliyatida manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha tegishli dalillarni ilova qilgan holda ularni aniqlashda faol yordam bergan shaxslarga undirilgan jarimaning 50 foizi miqdorida mukofot puli beriladi.

## BOLA ASRAB OLGANLARGA NAFAQA TO'LANADIMI?

**Yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga ta'til berilib, nafaqa to'lanadimi?**

G. Tog'ayeva.

Yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga bola farzandlikka olingan yoki vasiylik belgilangan kundan boshlab va bola tug'ilgan kundan e'tiboran ellik olti kalendar kun (bir vaqt-



ning o'zida ikki yoki undan ortiq bola farzandlikka olingan taqdirda esa yetmish kalendar kun) o'tguniga qadar qonunchilikda belgilangan, lekin o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan kam bo'lmagan miqdorda nafaqa to'langan holda ta'til beriladi. Bu haqda Mehnat kodeksining 406-moddasida ko'rsatilgan.

Yangi tug'ilgan bolani farzand-

likka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimning yozma arizasiga ko'ra, xodimga bola ikki yoshga to'lguniga qadar bolani parvarishlash ta'tili beriladi. Ushbu davr uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda nafaqa to'lanadi, shuningdek bola uch yoshga to'lguniga qadar ish haqi saqlanmaydigan ta'til ham beriladi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

## CHEMPION O'Z UYIDA MAG'LUB ETILDI

Mamlakat milliy chempionatining oxirgi – 26-turi 30-noyabr kuni bo'lib o'tdi. Bu o'yin "Metallurg" uchun hayotmamat uchrashuvi edi. Superligada jon saqlab qolish uchun juda ham kam imkoniyat taqdim etadigan o'yin esa yangi chempion – "Nasaf"ning maydonida bo'lib o'tishini inobatga oladigan bo'lsak, bu vazifani bajarish o'ta mushkul ish edi.

Ammo bekobodliklar ajoyib g'alaba bilan ortga qaytishdi. Bundan avvalgi o'yinda "Surxon" ustidan qozonilgan g'alaba "Metallurg"ga umid uchqunlarini taqdim etgan edi. Bitta cho'chitadigan tomoni "Metallurg"ning taqdiri faqatgina o'ziga bog'liq emasdi. Asosiy raqobatchi "Lokomotiv" so'nggi turda o'z uyida g'alaba qozonsa, chempion bilan o'yindagi yutuqning qiymati nolga teng bo'lardi.

Ketma-ket to'rtta o'yinda raqiblariga imkoniyatni boy bergan "Nasaf" bekobodliklar bilan uchrashuvda muxlislari oldida o'zlarini oqlab olish uchun eng kuchli tarkibini maydonga tushirdi. Ammo g'alabaga ishtiyoq baribir "Metallurg"da yuqori ekanligi ilk soniyalardanoq sezildi. Garchi to'p nazoratida ustunlikni mezbonlar qo'ldan berishmagan bo'lishsa-da, bekobodliklar nomdor raqibdan cho'chimasdan, xavfli qarshi hujumlari bilan ajralib turdi.

Birinchi taymning so'nggi daqiqasida o'tkazib yuborilgan gol ham bekobodliklar shashtini sindira olmadi. Hakam tomonidan qo'shib berilgan kompensatsiya vaqtining o'zida javob golini urgan hamshaharlarimiz tanaffusga yaxshi kayfiyatda yo'l olishdi.

Ikkinchi taymda "Metallurg" tezkor gol kiritdi. Mezbonlar himoyachisi va darvozabonining qo'pol xatosidan Daler Sharipov unumli foydalandi. O'ng qanotdan raqibni ta'qib etishga kirishgan hujumchimiz "sovg'a"dan oqilona foydalandi. To'pni darvozabonning ustidan oshirib chiroyli goli bilan jamoamizni oldinga olib chiqdi – 1-2. Shundan keyin ham bekobodliklar murabbiylar ko'rsatmasini mukammal bajarib, bu o'yinda g'alaba qozonishdi.

Superliganing 22 ta o'yinda bitta g'alaba qozongan "Metallurg" oxirgi 2 o'yinda 2 ta g'alaba qozondi. E'tiborli jihati Superligadagi mavqeini saqlab qolish yo'lida jon-jahdi bilan harakat qilgan "Metallurg" safarda chempionni ham yengdi. Deyarli butun mavsum so'nggi pog'onada borgan jamoamiz oxirgi o'yinda to'g'ridan to'g'ri Pro-ligaga tushib ketadigan oxirgi o'rinni tark etdi va Superligaga o'tish pley-off bahslarida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.



YAKUNIY JADVAL

No	Jamoalar	O'	Yu	D	M	T-N	O
1	"Nasaf"	26	15	7	4	35-18	52
2	OKMK	26	14	5	7	40-29	47
3	"Navbahor"	26	11	10	5	42-31	43
4	"So'g'diyona"	26	12	7	7	41-29	43
5	"Neftchi"	26	11	10	5	32-24	43
6	"Paxtakor"	26	11	5	10	42-37	38
7	"Surxon"	26	10	6	10	30-31	36
8	"Dinamo"	26	9	5	12	35-38	32
9	"Andijon"	26	6	12	8	36-36	30
10	"Bunyodkor"	26	7	9	10	27-38	30
11	"Qizilqum"	26	6	9	11	25-34	27
12	"Olimpik"	26	6	7	13	22-38	25
13	"Metallurg"	26	3	14	9	22-30	23
14	"Lokomotiv"	26	5	6	15	28-44	21

## O'TISH PLEY-OFF BAHSLARI

Bu yil Superligada oxirgi o'rinda qolgan "Lokomotiv" kuchlilar safini tark etdi.

Pro-ligada birinchi o'rinni olgan "Mash'al" to'g'ridan to'g'ri Superligaga yo'llanma oldi. Kelgusi mavsumdan Superligada 14 o'rniga 16 jamoa ishtirok etadi. Shu sababli qolgan 3 ta o'rin uchun Superligadan "Olimpik" va "Metallurg" Pro-ligadan "Qo'qon 1912" va "Sho'rtan" jamoalari Superligaga o'tish pley-off

bahslarida ishtirok etdi.

Birinchi o'tish o'yinida "Sho'rtan" "Olimpik"ni, "Qo'qon 1912" "Metallurg"ni yengib Superliga yo'llanmasini oldi. Birinchi o'tish o'yinda mag'lub bo'lgan "Olimpik" va "Metallurg" oxirgi yo'llanma uchun o'zaro kuch sinashdi. Bu o'yinda "Metallurg" g'alabaga erishib, Superligadagi o'rnini saqlab qoldi. "Olimpik" esa Pro-ligaga tushib ketdi.



## BIRINCHI O'YINDA MAG'LUBIYAT

"Metallurg" Superliga o'tish uchrashuvi 1-bosqichida 4-dekabr kuni Pro-liganing kichik bronza medali sovrindori "Qo'qon 1912" jamoasiga qarshi Yaypan stadionida maydonga tushdi. O'yin boshlanishi bilan mezbonlarning birinchi hujumiyoq gol bilan yakunlanishi mumkin edi. Chap qanotdan jarima maydonchasiga uzatilgan to'p himoyachilar orasidan o'tib, "Metallurg" darvozasining ustuniga tegdi va maydon tashqarisiga chiqib ketdi.

Bu holat mehmonlarni sergak tortishga majbur etdi. Superliga tajribasi, to'pni ko'proq nazoratda

ushlab turish hamda raqib shashtini ustamonlik bilan pasaytirish natijasida ustunlik "Metallurg" tomoniga o'tdi. Bu esa 24-daqiqada o'z samarasini berdi. Chap qanotda Abror Toshqo'ziyev bilan devor kombinatsiyasini amalga oshirgan Azizbek Pirmuhammadov jarima maydonigacha kirib bordi va to'pni darvoza yaqiniga uzatdi. Sardorimiz Zabixillo O'rinboev hammadan chaqonroq harakat qilib, nostandart urinish ila to'pni darvoza to'riga tushirdi – 0:1.

"Qo'qon 1912" uchrashuv

tugashiga o'n daqiqa qolganda hisobni tenglashtirdi. Qo'shimcha taymlardan keyin amalga oshirilgan penaltilar seriyasida esa yutuq maydon egalari g'alabaga chiqdi – 3:2.



## IKKINCHI O'YINDA G'ALABA

Superligaga o'tish ikkinchi bosqichida 2024-yilgi mavsumni kuchlilar safida omadsiz o'tkazgan ikki jamoa – "Olimpik" va "Metallurg" o'zaro kuch sinashdi va unda Bekobod jamoasining qo'li baland keldi hamda elitadagi mavqeini saqlab qoldi.

Toshkentda "Bunyodkor" stadionida 9-dekabr kuni o'tkazilgan bu uchrashuv bekobodlik futbolchilarning

katta ustunligi bilan boshlandi.

11-daqiqada Zabixillo O'rinboev raqib darvozasini aniq nishonga oldi – 1:0.

32-daqiqaga kelganda bekobodliklarning yana bir hujumi o'z samarasini berdi.

Tanaffusdan keyin "Olimpik" javob golini kiritdi – 2:1. O'yin shu hisobda yakun topdi.

## "METALLURG" 2025-YILGI MAVSUMDA SUPERLIGADA QATNASHMAYDI

Avvalroq O'zbekiston professional futbol Ligasi "Metallurg" PFK MCHJ ustav kapitalining 100 foiz ulushiga egalik qiluvchi "O'zmetkombinat" AJga murojaat qilib, 24-dekabr sanasiga qadar klubning Superligadagi kelgusi taqdiriga oydinlik kiritishni so'ragandi.

20-dekabr kuni "O'zmetkombinat" AJ Liga so'roviga javob qaytardi hamda "Metallurg" klubining Superligada ishtirok etmasligini ma'lum qildi. Javob xatida tashkilotning klubga homiylik mablag'i ajratishi to'xtatilgani va buning sabablari batafsil tushuntirildi.

Manba: pfl.uz

Bir kambag'al bechora yo'lda ketayotsa oldidan bir hamyon chiqib qolibdi. Ichini ochib qarasa, bir tanga bor ekan, kambag'al ota-onam anchadan beri sut ichmagandi, bu pulga ularga sut olib boraman deb o'ylab, turgan ekan hamyon og'irlashibdi...

Ichini ochib qarasa hamyonda o'n tanga turganmish.

Kambag'al: - "Yo, Xudo qudratingdan..." - deb hayron bo'libdida, undan ko'ra bu pulga bitta sigir olaman, shunda ota-onam ham, farzandlarim ham, har kuni tongda sut ichadigan bo'lishadi, deb o'ylagan ekan hamyon yana og'irlashibdi...

Bu safar uni ichida anchagina pul turgan ekan. Kambag'al o'tgan qish ota-onam rosa sovuqdan

## BIR TANGALIK HAMYON

IBRAT IZLAGANGA IBRATDIR DUNYO



qiynalishgandi, xonalari ta'mirsiz edi, bu pulga ota-onamning xonasini ta'mirlayman deb o'ylagandi hamki, hamyon yana ham og'irlashibdi...

O'sha payt kambag'al xotinim anchadan beri "bu uyda yashamayman", deb aytayotgandi, undan ko'ra, eski uyni ota-onamga qoldirib, yangi uy olib ko'chib ketamiz, deb o'ylagan ekan, hamyon avvalgi holatiga qaytib qolibdi..?!

Ya'ni, ichidagi hamma pul yo'qolib, faqatgina o'sha bir tanga qolibdi.

Hayotingiz go'zal bo'lishi uchun avvalo xayolaringiz halol va poklik ila go'zal bo'lishi kerak. Unutmang, hayotingizdagi har bir vaziyat o'y-xayollaringiz natijasidir...



## HECH NARSA O'ZI UCHUN YASHAMAYDI

Ariq o'z suvini ichmaydi. Daraxtlar o'z mevasini yemaydi. Quyosh o'zi uchun porlamaydi. Gullar o'zi uchun gullamaydi. Hatto insonlar ham, "Men o'zim uchun yashayman" deyishsa ham, baribir kimdir ular uchun hayotlarining mazmuni hisoblanadi. Yaratilgan borki, o'zi uchun bo'lmagan narsalarni boshqalarga berish bilan baxtlidir. Gullar kimlarningdir ko'nglini shod aylaydi. Suv esa kimlargadir hayot beradi.

Siz ham mehr ulashing, tabasum ulashing, hamdard bo'ling, do'st bo'ling va albatta berganlaringizdan ortig'iga erishasiz. Shunday bo'lingki, atrofingizdagilar sizdek yaqini borligiga shukronalar aytsin!

## HIKMATLAR GULDASTASI

Yoki ilmli bo'l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo'l, loqal ilmni tinglab eshitadigan bo'l, ammo to'rtinchisi bo'lma, chunki kasodga uchrab halok bo'lasan.

**Mahmud az-Zamaxshariy.**  
\*\*\*

Yaxshi inson o'zidan baxt,  
Yomon inson o'zidan tajriba,  
Xatkor inson o'zidan dars,  
Mukammal inson o'zidan go'zal iz qoldiradi...

**Jaloliddin Rumiy.**  
\*\*\*

Asrashing kerak bo'lgan eng nafis narsa - vaqtdir. Sen esa uni osongina zoe qilmoqdasan!

**Abdul Fattoh Abu G'udda.**

## BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Davlatimizning oliy mukofotining qanday nomlanishini bilasizmi?

\*\*\*

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi bu ...

\*\*\*

Astronomiya, matematika va geografiya sohalarida ulkan kashfiyotlar qilgan, Yevropada al-Fraganus nomini olgan buyuk ajdodimizning haqiqiy nomini bilasizmi?

\*\*\*

U avval o'simlik edi, so'ng buyum bo'ldi, so'ng jonzo'tga aylandi va Qur'onda zikr qilindi. Bu nima?

\*\*\*

Arab grammatikasini mukammal ishlab chiqqan buyuk ajdodimizni taniysizmi?

\*\*\*

Rasadxona qurib, yulduzlarni tekshirgan, yulduzlar xaritasini tuzib, kelajak avlodlarga buyuk me'ros qoldirgan buyuk alloma kim?

**Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.**

**Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.**

\* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 27 bob, 155 moddadan iborat.

\* Konstitutsiya lotincha "Konstitutio" so'zidan olingan bo'lib tuzilish, tuzuk degan ma'noni anglatadi.

\* Dunyodagi ilk Konstitutsiya hisoblanuvchi AQSH Konstitutsiyasi 1789-yili qabul qilindi

\* Bu davrda 5 nafar metallurg Mehnat Qahramoni bo'lgan. Marten sexi po'lat erituvchilar ustasi Hofiz G'aniyev, prokat sexining ustasi Said Nurutdinov, marten sexi metallni quyish bo'limi katta ustasi Asad Ergashev, davlatimiz mustaqilligi yillarida Elektrda po'lat eritish sexi operatori Abdurahmon Abdurazzoqov ham shu sex po'lat erituvchisi Olim To'ychiyev Mehnat Qahramoni unvonini olganlar.

\* Tish pastasi.

\* Rixsivoy Yusupov birinchi marta 1965-yildan 1966-yilgacha, ikkinchi marta 1979-yildan 1986-yilgacha zavod direktori bo'lib ishlagan.

\* Marten pechlarida avvallari 35 tonnagacha po'lat eritilgan, keyinchalik bu ko'rsatkich 100 tonnagacha oshirilgan.

\* Dafna yaprog'i.



## XANDALAR!

Yangi yil kuni bir Qorbobo ikkinchisiga dedi:

- Menga qara, og'ayni, menikilarniyam birrov kirib tabriklab chiqsang bo'lardi.

- Jinni-pinni bo'ldingmi? O'zing kirib, tabriklab chiqsang ham bo'ladi-ku?!

- To'g'ri-ku-ya, ammo men qimmat olaman-da!

\*\*\*

Aroqxo'rga o'rtoqlari tanbeh berishdi:  
- Yoshing ham bir joyga borib qoldi. Endi ichishni tashlasang bo'larmidi...

- Ko'p yillik stajim kuyib qolarmikan, deyman-da.

\*\*\*

Bankda ish qizg'in ketmoqda. Bir payt niqobli odamlar qurollari bilan bank eshigidan baqirib kirib kelishibdi:

- Yotinglar, qimirlamanglar, hech narsaga qo'l tekkizmang! Bu bosqinchilik!..

Shunda bank raisi boshini ko'tarib, mamnun ovozda:

- Xudoga shukur-yey, men soliq qo'mi-tasidagilar deb o'ylabman-a! - dermish.

## FOYDALI MASLAHATLAR

\* Oshqozon og'riganda naharda hamda yotish oldidan bir qoshiq dog'langan zaytun moyi ichish tavsiya etiladi.

\* Kezi kelganda me'yorida yig'lab turish sog'liqqa foydali.

\* Kimda-kim har 10-15 kunda bir marta shomda 1 litr qatiq zardobini ichib, ichini yuvsa, qon bosimi, qand, bavo'sir, oshqozon og'rig'i kabi xastaliklardan xalos bo'ladi.

\* Sabzavot, ko'katlardan unumli foydalanish umrni uzaytiradi.

\* Doim ko'k choy ichib, sariq sabzi yeb yurgan odam o'sma (rak) kasaliga chalinmaydi.

\* Sport turlari ichida eng foydalisi yugurishdir.



**MUASSIS:**  
O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

**Muharrir:**  
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar "O' zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatining Metallurglar madaniyat saroyida joylashgan.  
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib, sahifalandi va "Niso nashriyot va matbaa uyi" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'rta Chirchiq tumani "Mash'al" mahallasi, "Markaziy" ko'cha, 1-uy.

**Sahifalovchi:**  
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00  
Bosishga topshirildi-14.20  
Adadi 600. Bichimi A-3.  
ISSN 2181-645X  
Gazeta "O' zmetkombinat" AJda bepul tarqatiladi.